

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
«O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI» ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

BABAYEV FARRUX MANSUROVICH

**O‘ZBEKISTONDA SOLIQ MA‘MURIYATCHILIGINING
SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
Economical sciences**

Babayev Farrux Mansurovich

О'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini baholash va takomillashtirish yo'llari..... 3

Бабаев Фаррух Мансурович

Пути оценки и повышения эффективности налогового администрирования в Узбекистане. 25

Babayev Farrukh Mansurovich

Ways to assess and improve the efficiency of tax administration in Uzbekistan49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
«O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI» ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

BABAYEV FARRUX MANSUROVICH

**O‘ZBEKISTONDA SOLIQ MA‘MURIYATCHILIGINING
SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2023.4.PhD/Iqt3469 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi «O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari» ilmiy-tadqiqot markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Isayev Faxriddin Ikromovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Xudoyqulov Xurshid Xurramovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor Abdullayev Zafar Alijonovich iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Toshkent Kimyo xalqaro unversiteti


Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «23» 09 soat 14⁴⁵ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.


Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (175⁹ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «4» 09 kuni tarqatildi.
(2025 yil «4» 09 dagi 75 raqamli reestr bayonnomasi).




S.U. Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor


U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor


KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarida soliq ma'muriyatchiligini baholash va uni takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlarga ehtiyoj tobora oshib borayotgani, avvalo, jahonda raqamli transformatsiya natijasida yig'im protseduralari tubdan o'zgarayotgani bilan asoslanadi. OECDning "Tax Administration 2024" hisobotida ta'kidlaydiki, "58 ta ilg'or va rivojlanayotgan yurisdiksiyaning deyarli barchasi elektron hisobot va sun'iy intellekt asosida risk-menejmentni joriy etgan, natijada soliqlarni jamg'arish xarajatlari o'rtacha 1 foizdan pastga tushgan va komplayens darajasi tarixiy yuqori nuqtaga chiqqan"¹. Ham global, ham milliy darajadagi bu tezkor o'zgarishlar davlat xazinasini barqarorligini ta'minlash, yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va raqamli iqtisodiyotga mos soliq infratuzilmasini yaratish uchun ma'muriy samaradorlikni aniq o'lchovlar orqali baholash metodologiyasini yangilashni talab etmoqda. Shu bois mavzuni chuqur o'rganish soliq tizimini strategik rejalashtirish, risklarni boshqarish va axborot texnologiyalarini integratsiya qilish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish uchun o'ta dolzarb vazifaga aylandi.

Xalqaro tadqiqotlarda soliq ma'muriyatchiligini baholash va takomillashtirish yo'nalishlari salmoqli darajada kengaymoqda. Zamonaviy tadqiqotlar, avvalo, soliq yig'imlarining xarajat-hosil munosabatini, soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini va raqamli infratuzilmaning tayyorligini o'lchashga qaratilgan. Tadqiqotchilar TADAT kabi global diagnostika vositalaridan, dinamik panel-ma'lumotlar modellaridan hamda machine-learning algoritmlaridan foydalanib, soliq ma'muriyatlarining KPIlari yig'im-xarajat koeffitsiyenti, komplayens darajasi, audit qoplanish ulushi va soliq qarzi aylanish tezligini real-timeda monitoring qilmoqda. Shu bilan birga, "sunset clause" va samaradorlik auditi orqali islohot natijalari institutsional mustahkamlanmoqda. Bunday ilg'or metodologiyalar soliq ma'muriyatchiligini shaffof, kam-xarajat va innovatsion tarzda rivojlantirish, shu orqali davlat budjeti barqarorligi va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilayotgani sohaning dolzarb tadqiqot yo'nalishiga aylantirdi.

Soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini amalga oshirish davlat moliyaviy barqarorligini ta'minlash va xususiy sektorni rivojlantirish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2024-yil 20-dekabdagi yig'ilishda: "...qulay va jozibador biznes muhitini saqlab qolish uchun barqaror soliq siyosati yuritilishini ta'kidladi. Jumladan, hozirgi kunda budjet tushumlari qanchalik zarur bo'lmasin, asosiy soliqlar bo'yicha stavkalar o'zgarmaydi. Shuningdek, 1-yanvardan boshlab, yer yoki davlat mulki qo'shilgan qiymat solig'isiz sotiladi, mobil aloqa uchun aksiz solig'i bekor qilinadi"², - deb ta'kidlab, soliq ma'muriyatchiligini oldiga keng ko'lamliligi vazifalarni belgilab berdi. Mazkur tadqiqot O'zbekiston soliq ma'muriyatchiligini shaffof, kam-xarajat va innovatsion shaklga olib chiqish orqali

¹ OECD (2024), Tax Administration 2024: Comparative Information on OECD and other Advanced and Emerging Economies, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/2d5fba9c-en>.

²O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: Tadbirkorning yutug'i – butun xalqimizning yutug'i. 20.12.2024. <https://president.uz/uz/lists/view/7778>

budjet daromadlarini ko‘paytirish va tadbirkorlik uchun adolatli raqobat muhitini barqaror qo‘llab-quvvatlashni maqsad qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-son “Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 21-iyuldagi PF-111-son “Ma‘muriy islohotlar doirasida investitsiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2024 yil 23 yanvardagi PQ-39-son “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023 yil 21 dekabrda PQ-402-son “O‘zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo‘lga qo‘yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Soliq ma‘muriyatchiligining samaradorligini baholash va takomillashtirishning nazariy-uslubiy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar A.Pellechio, V.Koroviy, M.Mardan, M.Rumasukun, O.Vinnytska, M.Muzainah, V.Roshchupkina, MDH olimlaridan A.S.Advokatova, I.A.Mayburov, Yu.A.Kroxina, V.G.Panskov, L.Sidelnikovalarni kiritish mumkin³.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan S.K.Xudoykulov, J.J.Urmonov, I.M.Niyazmetov, N.B.Ashurova, U.X.Normurzayev, F.I.Isayev va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida soliq ma‘muriyatchiligining samaradorligini baholash va takomillashtirishga oid nazariy va metodologik asoslarning ayrim jihatlarini

³ Pellechio, A. (1995). The Reform of Tax Administration. *Tax Law: Tax Law & Policy eJournal*. <https://doi.org/10.5089/9781451843941.001.A001>; Koroviy, V. (2020). Tax regulation of socio-economic development. , 147-155. <https://doi.org/10.31470/2306-546X-2020-47-147-155>; Mardan, M. (2019). Tax Systems and Development. *International Corporate Finance eJournal*. <https://doi.org/10.2139/ssrn.3490404>; Rumasukun, M., & Noch, M. (2023). Comparative Analysis of Tax System Effectiveness in Developed and Developing Countries. *Golden Ratio of Taxation Studies*. <https://doi.org/10.52970/grts.v3i2.626>; Vinnytska, O. (2024). Theoretical foundations of tax administration: fundamentals of fiscal management. *Economies' Horizons*. [https://doi.org/10.31499/2616-5236.1\(27\).2024.299231](https://doi.org/10.31499/2616-5236.1(27).2024.299231); Muzainah, Mansor., Mahamad, Tayib. (2015). 4. A Holistic Approach to Tax Administration Performance Management: Developing an Integrated and Open System Model.; Roshchupkina, V. (2019). Methodical Bases of Rating Assessment of Tax Policy Efficiency. *Proceedings of the International Scientific Conference "Far East Con" (ISCFEC 2018)*. <https://doi.org/10.2991/ISCFEC-18.2019.52>; Advokatova A.S. Налоговый контроль в условиях модификации отношений налоговых органов и налогоплательщиков. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук Москва – 2019, 26 с.; Mayburov I.A. Teoriya nalogooblojeniya./ I.A.Mayburov, A.M. Sokolovskaya. – M.: YUNITA-DANA, 2020.-591 s.; Nalogovoye pravo: Uchebnik dlya bakalavrov. 5-ye izd., pererab. i dop. / Yu.A. Kroxina. – M.: Yurayt, 2011. – 451 s. (с. 186-187).; Panskov V. G. Налоговые льготы: теория и практика. *Ekonomika. Nalogi. Pravo = Ekonomika, Nalogi. Zakon*. 2016. №. 1, str. 119–125.; Larisa, Сидельникова. (2020). 3. Теоретико-організаційні доміанти податкового адміністрування в системі державного податкового менеджменту. *Economy and Society*, doi: 10.32782/2524-0072/2020-22-59;

o'rganilgan⁴. Shuning uchun soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini kompleks baholash va yagona raqamli tizimlar asosida takomillashtirishga qaratilgan tadqiqot bugungi iqtisodiy islohotlar doirasida juda dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi «O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari» ilmiy-tadqiqot markazining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi transformatsiyasining uslubiy asoslari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini baholash va takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

soliq ma'muriyatchiligining nazariy asoslarini ko'rib chiqish;

soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini baholash mezonlari va uslublarini o'rganish;

soliq ma'muriyatchiligining iqtisodiyot va xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holatiga ta'sirini tahlil qilish;

soliq ma'muriyatchiligidagi mavjud muammolar va kamchiliklarni baholash;

soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishning xalqaro tajribalari va ulardan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilish;

soliq ma'muriyatchiligini samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

soliq ma'muriyatchiligining raqamlashtirilgan modelini joriy etish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasidagi soliq organlari faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini baholashning nazariy, amaliy va uslubiy asoslarini takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda dialektik yondashuv, tahlil va sintez, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, reyting baholash, statistik va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini o'lchashning kompleks uslubiy yondashuvi soliq tushumlarini to'plash darajasi, tadbirkorlar uchun ma'muriy yuklamalarning kamayishi, soliq organlari faoliyatining ochiqligi va raqamli

⁴ Xudoykulov S.K. Soliq tushumlarini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. diss. avtoreferati. T., 2019. 77 b.; Urmonov J.J. Tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish masalalari: Monografiya/ T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018 y. 240 b.; Ashurova N.B. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2018. 25 bet.; Niyazmetov I.M. “Soliq yukini optimallashtirish: nazariya, uslubiyat va amaliyot” Monografiya.-Toshkent: “Moliya”, 2016. 192 b.; Normurzayev U.X. Soliq imtiyozlarining samaradorligi: nazariya, metodologiya va amaliyot. 08.00. 07 – Moliya, pul muomalasi va kredit. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2022.; Isayev, F. (2025). Osenka nalogovoy politiki v Uzbekistane s ispolzovaniyem nauchnogo podxoda. Peredovaya ekonomika i pedagogicheskiye texnologii, 1(3), 201–211. izvlecheno ot <https://inlibrary.uz/index.php/aept/article/view/65565>.

xizmatlardan foydalanish darajasi ko'rsatkichlari vositasida sifat va natijaviylikni chuqur baholash imkonini ta'minlash jihatidan takomillashtirilgan;

oxirgi uch yilda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi 10 milliard so'mdan oshmagan, budjet va kreditorlar oldida qarzdorligi mavjud bo'lmagan hamda muntazam ravishda soliq hisobotlarini taqdim etayotgan, "Xavfni tahlil qilish" elektron tizimida huquqbuzarlik sodir etish xavfi past darajada tasniflangan kabi mezonlarga bir vaqtning o'zida javob beruvchi kichik va o'rta biznes subyektlarining faoliyatini soliq tekshiruvi o'tkazmasdan ixtiyoriy tugatish tartibini joriy qilish taklifi asoslangan;

kichik biznes subyektlariga tatbiq etilayotgan soddalashtirilgan soliq rejimining samaradorligini kichik va o'rta biznes subyektlariga soliq yukini maqbullashtirish orqali investitsiya jozibadorligini oshirish va ilg'or texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish darajasi orqali baholash taklif etilgan;

tikuv-trikotaj, poyabzal va charm-attorlik sanoati yo'nalishlaridagi tadbirkorlik subyektlari uchun foyda solig'i stavkasini 2 foiz va ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz miqdorida belgilash ko'zda tutilgan soliq imtiyozlariga oid shartlarga rioya qilinmagan holatlar bo'yicha imtiyozlarni bekor qilish orqali soliq tizimi barqarorligini ta'minlash va barcha ishtirokchilar uchun teng sharoitlar yaratish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

soliq ma'muriyatchiligida samaradorlikka erishish strategiyalari ishlab chiqilgan;

tekshiruvlarning umumiy sonini qisqartirgan holda, raqamli ma'lumotlar bazasi orqali risk-analiz metodlari asosida aniq yo'nalgan tekshiruvlar o'tkazilish taklif qilingan;

soliq to'lovchilar va tegishli tashkilotlar o'rtasida umumiy elektron axborot maydonini yo'lga qo'yish taklifi asoslantirilgan;

idoralararo hujjatlar aylanmasini birlashtirish va shaffoflashtirish orqali korrupsiyaviy holatlar xavfini pasaytirish hamda davlat boshqaruvida raqamli texnologiyalarning integratsiyasini kengaytirish bo'yicha "yagona oyna" tizimi konsepsiyasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot ishini tayyorlashda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondoshuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi tomonidan joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini baholash va takomillashtirishga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini baholash va takomillashtirish, qonunchilik bazasini yaxshilash, shuningdek, oliy ta'lim muassasalari uchun ilmiy

adabiyotlar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlash uchun ishonchli metodik asos yaratishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qabul qilinadigan huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda ilmiy asoslangan ma'lumotlardan foydalanishni yengillashtiradi, soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini baholash va takomillashtirishda muhoqama uchun yo'nalishlar taqdim etadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini baholash va takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini o'lchashning kompleks uslubiy yondashuvi soliq tushumlarini to'plash darajasi, tadbirkorlar uchun ma'muriy yuklamalarning kamayishi, soliq organlari faoliyatining ochiqligi va raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi ko'rsatkichlari vositasida sifat va natijaviylikni chuqur baholash imkonini ta'minlash jihatidan takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda "O'zbekiston mahallalari uyushmasi faoliyatini yo'lga qo'yish va mahallalarda boshqaruv tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-402-son qarori bilan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 17-aprelda 08-45720-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif natijasida keng qamrovli indikatorlar tizimini joriy etish orqali, soliq ma'muriyatchiligi boshqaruvining tashkil etilishi, idoraviy hamkorlik sifati va natijaviyligi kabi faktorlarni chuqur baholash asoslantirilgan;

oxirgi uch yilda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi 10 milliard so'mdan oshmagan, budget va kreditorlar oldida qarzdorligi mavjud bo'lmagan hamda muntazam ravishda soliq hisobotlarini taqdim etayotgan, "Xavfni tahlil qilish" elektron tizimida huquqbuzarlik sodir etish xavfi past darajada tasniflangan kabi mezonlarga bir vaqtning o'zida javob beruvchi kichik va o'rta biznes subyektlarining faoliyatini soliq tekshiruvi o'tkazmasdan ixtiyoriy tugatish tartibini joriy qilish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martda "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-50-son Farmoni bilan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 17-aprelda 08-45720-sonli ma'lumotnomasi). Buning natijasida oxirgi uch yilda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan jami daromadi 10 milliard so'mdan oshmagan, budget va kreditorlar oldida qarzdorligi mavjud bo'lmagan hamda muntazam ravishda soliq hisobotlarini taqdim etayotgan, "Xavfni tahlil qilish" elektron tizimida huquqbuzarlik sodir etish xavfi past darajada tasniflangan kabi mezonlarga bir vaqtning o'zida javob beruvchi kichik va o'rta biznes subyektlarining faoliyatini soliq tekshiruvi o'tkazmasdan ixtiyoriy tugatish tartibi joriy qilingan;

kichik biznes subyektlariga tatbiq etilayotgan soddalashtirilgan soliq rejimining samaradorligini kichik va o'rta biznes subyektlariga soliq yukini maqbullashtirish orqali investitsiya jozibadorligini oshirish va ilg'or texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish darajasi orqali baholash taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martda "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-50-son Farmoni bilan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 17-aprelda

08-45720–sonli ma'lumotnomasi). Natija kichik va o'rta biznes subyektlariga soliq yukini maqbullashtirish orqali investitsiya jozibadorligini oshirish va ilg'or texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirishga xizmat qilgan;

tikuv-trikotaj, poyabzal va charm-attorlik sanoati yo'nalishlaridagi tadbirkorlik subyektlari uchun foyda solig'i stavkasini 2 foiz va ijtimoiy soliq stavkasini 1 foiz miqdorida belgilash ko'zda tutilgan soliq imtiyozlariga oid shartlarga rioya qilinmagan holatlar bo'yicha imtiyozlarni bekor qilish orqali soliq tizimi barqarorligini ta'minlash va barcha ishtirokchilar uchun teng sharoitlar yaratish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda "Tadbirkorlar uchun teng sharoitlar va adolatli raqobat muhitini ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-229-son Farmoni bilan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasining 2025-yil 17-aprelda 08-45720–sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklif natijasida imtiyozlarni samarali nazorat qilish orqali soliq tizimi barqarorligini ta'minlash va barcha ishtirokchilar uchun barobar sharoitlar yaratish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta, shundan, nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 142 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini baholashning nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida soliq ma'muriyatchiligining mohiyati va vazifalari, huquqiy asoslari hamda soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini baholash mezonlari va uslublari bo'yicha tadqiqot olib borilgan.

Bugungi kunda samarali soliq ma'muriyatchiligi har qanday davlatning fiskal faoliyati uchun asosdir. U davlat daromadlarini jalb qilish, soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlash, soliq to'lovchi va hukumat o'rtasidagi ishonchni mustahkamlash uchun asosiy ta'minlovchi bo'lib xizmat qiladi. "So'nggi yillarda mamlakatimiz soliq ma'muriyatchiligi tubdan isloh qilinmoqda. 2019-yil dekabrda yangi tahrirdagi Soliq

kodeksi qabul qilinib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanuvchi normalar joriy etildi. Soliqlar soni 13 tadan 9 taga kamaytirildi... Bularning natijasida tadbirkorlarning islohotlarga ishonchi ortib, soliq tushumlari 4 baravar ko‘paydi’⁵, - degan edi Shavkat Mirziyoyev.

Soliq ma‘muriyatchiligining amaliy jihatlari bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar mavjud bo‘lsada, nazariy asoslar yetarlicha o‘rganilmagan. Soliq ma‘muriyatchiligi bilan bog‘liq ta‘riflar, tushunchalar va vazifalar ko‘pincha muhokama qilinadi, umume‘tirof etilgan asoslar mavjud emas. Bunday uyg‘unlikning yo‘qligi, xususan, modernizatsiyaga o‘tayotgan iqtisodlarda soliq tizimini takomillashtirish bo‘yicha yagona strategiyalarni ishlab chiqishga to‘sqinlik qilmoqda. Bu kamchiliklarni bartaraf etish soliq ma‘muriyatchiligining mohiyati va vazifalariga oid nazariy qarashlarni har tomonlama tahlil qilishni taqozo etadi.

Zamonaviy soliq ma‘muriyati daromadlarni yig‘ishning an‘anaviy rolidan tashqari, moliyaviy, iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarga erishishda strategik hamkorga aylandi. Uning vazifalari va maqsadlari ko‘p tomonlama bo‘lib, muvofiqlikni boshqarish, samaradorlik, adolat va global hamkorlikni o‘z ichiga oladi. Rivojlanayotgan muammolarni hal qilish va kengroq siyosatlarga moslashish orqali soliq ma‘muriyatchiligi barqaror va adolatli iqtisodiy tizimlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

E‘tibor qiladigan jihatimiz, soliq ma‘muriyatchiligining soliq siyosatidan farqi shundaki, u shakllantirishga emas, balki ijroga qaratilgan. Biroq ikkalasi bir-biriga bog‘liqdir, chunki sog‘lom boshqaruv yaxshi ishlab chiqilgan siyosatni talab qiladi va samarali siyosat mustahkam ma‘muriy tizimlarga bog‘liq (1-rasm).

Olib borilgan tadqiqot doirasida soliq ma‘muriyatchiligining quyidagicha ta‘rifini shakllantirish, uning bugungi kundagi mukammal ifodasini ko‘rsata oladi deb hisoblaymiz. Ya‘ni **soliq ma‘muriyatchiligi** - *bu davlat organlari tomonidan soliqlarni samarali yig‘ish, soliq qonunchiligini amalga oshirish, ularga rioya qilishni ta‘minlash va soliq to‘lovchilar bilan munosabatlarni boshqarish uchun qo‘llaniladigan tashkiliy tuzilmalar, jarayonlar va siyosatlar majmuini anglatadi.*

Soliq ma‘muriyatchiligining huquqiy asoslari tizimning to‘g‘ri ishlashini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan qoidalar, tuzilmalar va tartiblarni ta‘minlaydi. Soliq organlari va soliq to‘lovchilar o‘rtasidagi munosabatlar har ikki tomonning huquq va majburiyatlarini belgilab beruvchi qonunlar, qoidalar va ma‘muriy tartiblarning murakkab tarmog‘i bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunchilik asoslari soliq tizimlarining asosi bo‘lib xizmat qiladi, soliq yig‘ishning qonuniyligini belgilab beradi hamda bu jarayonda adolat, shaffoflik va hisobdorlikni ta‘minlaydi.

O‘zbekistonda soliq ma‘muriyatchiligining huquqiy asoslari davlatning fiskal siyosati, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlik uchun muhim omillardan sanaladi. Soliq ma‘muriyatchiligining samaradorligi, avvalo, davlatning moliyaviy manbalarini to‘g‘ri yo‘naltirish, iqtisodiy o‘sishga turtki berish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, soliq ma‘muriyatchiligining

⁵. Soliq yukini kamaytirish va sohani raqamlashtirish vazifalari belgilandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Davlat soliq qo‘mitasida sohani takomillashtirish bo‘yicha navbatdagi vazifalar yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi. 16.03.2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5060>

ijtimoiy ahamiyati davlatning soliq siyosatidagi shaffoflik va adolatlilikni ta'minlashga qaratilgan.

Daromadni yig'ish	Soliq ma'muriyatining asosiy vazifasi davlat xizmatlari va infratuzilmasini moliyalashtirish uchun soliqlarni samarali yig'ishdir. Bu soliq to'lovchini ro'yxatga olish, soliq hisobotini topshirish va to'lovlarni qayta ishlash tizimlarini yaratishni o'z ichiga oladi.
Muvofiqlikni ta'minlash	Muvofiqlik soliq to'lovchilarning o'z majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda bajarishini ta'minlashni o'z ichiga oladi. Bu soliq to'lovchilarni o'z vazifalari to'g'risida o'rgatish, rioya etilishini rag'batlantirish jarayonlarini soddalashtirish va rioya etmaganlik uchun jarima solishni o'z ichiga oladi.
Soliq qonunlarining bajarilishi	Bu qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bajarilmagan soliq to'lovchilarga nisbatan qonuniy choralar ko'rish, nizolarni hal etish va jarima solishni o'z ichiga oladi.
Soliq to'lashdan bo'yin tovlash va qochishni minimallashtirish	Soliq ma'muriyatining oldiga soliq to'lashdan bo'yin tovlash (noqonuniy to'lamaslik) va qochish (soliq majburiyatini qonuniy, lekin istalmagan holda kamaytirish) holatlarini aniqlash va bartaraf etish vazifasi yuklatilgan. Strategiyalarga maqsadli auditlar, ma'lumotlar tahlilidan foydalanish va noqonuniy moliyaviy oqimlarni kuzatish uchun xalqaro hamkorlik kiradi.
Qo'llab-quvvatlovchi iqtisodiy siyosat	Soliq ma'muriyati soliq imtiyozlari va subsidiyalarni samarali amalga oshirish orqali daromadlar tengsizligini kamaytirish, investitsiyalarni rag'batlantirish yoki muayyan tarmoqlarni rag'batlantirish kabi kengroq iqtisodiy maqsadlarni qo'llab-quvvatlaydi.

1-rasm. Soliq ma'muriyatchiligining asosiy funksiyalari⁶

O'zining muhimligiga qaramay, soliq ma'muriyatchiligi optimal samaradorlikka erishishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash, ma'muriy samaradorlik, texnologik integratsiyaning yo'qligi va shaffoflikning cheklanganligi kabi muammolar soliq organlarining daromadlarni maksimal darajada yig'ish va ixtiyoriy ravishda bajarilishini ta'minlash qobiliyatiga to'sqinlik qiladi. Bu muammolar soliq ma'muriyatchiligi faoliyatini baholash, kamchiliklarni aniqlash va maqsadli islohotlarni amalga oshirishga tizimli yondashishni taqozo etadi. O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini baholashning mustahkam mezonlari va usullarini ishlab chiqish zarurati hukumatning soliq tizimini ilg'or xalqaro tajribalar asosida takomillashtirishga intilishi bilan kuchaymoqda.

Soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini baholashda uning faoliyatining miqdoriy va sifat jihatlari hisobga olinishi kerak. Daromadlarni yig'ish samaradorligi, muvofiqlik darajalari va ma'muriy xarajatlar kabi asosiy ko'rsatkichlar operatsion muvaffaqiyat haqida o'lchanadigan tushunchalarni beradi. Shu bilan birga, tenglik va adolatlilik, soliq to'lovchilarning qoniqishi va ilg'or texnologiyalarning integratsiyasi kabi kengroq o'lchovlar zamonaviy soliq tizimi uchun zarur bo'lgan ijtimoiy, axloqiy va texnologik jihatlarni aks ettiradi. Soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini ishonchli baholash aniq va o'lchanadigan mezonlarni talab qiladi, ular faoliyatning

⁶ Adabiyotlarni o'rganish asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

miqdoriy va sifat jihatlarini qamrab oladi hamda bunday baholashda keng tarqalgan asosiy mezonlar 2-rasmda keltirilgan.

Daromadlarni yig'ish samaradorligi

Muvofiqlik darajalari

Ma'muriy samaradorlik

Adolat

Soliq to'lovchiga xizmat ko'rsatish sifati

Shaffoflik va javobgarlik

Texnologik integratsiya

2-rasm. Soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini baholash va o'lchashdagi mezonlar⁷

Soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini baholash soliq siyosati, qonun hujjatlariga rioya etish va ma'muriy faoliyatning turli jihatlarini baholashning miqdoriy va sifat usullarini birlashtirgan tizimli yondashuvni talab qiladi. Soliq tizimlarining samaradorligi, shaffofligi va adolatliligini baholash uchun global miqyosda bir nechta yondashuvlar qo'llaniladi. O'zbekistonda bu usullar mamlakatning o'ziga xos iqtisodiy va ma'muriy holatini hal qilish uchun moslashtirilgan. Ushbu yondashuvlarni birma-bir ko'rib chiqamiz.

1-jadval

Ishlash ko'rsatkichlari va asosiy ko'rsatkichlar⁸

Ko'rsatkich nomi	Mohiyati
Soliqlarning yalpi ichki mahsulotga nisbati	<i>Bu ko'rsatkich soliq tushumlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan ulushini o'lchaydi. Soliqlarning yalpi ichki mahsulotga nisbati yuqoriroq soliq tizimini yanada samaraliroq va daromadlar hosil qilishdan dalolat beradi.</i>
Daromadlarni yig'ish samaradorligi	<i>Bu ko'rsatkich yig'ilgan jami soliqlarning foizini baholaydi. Qarzdorlikning umumiy summasiga yig'im qanchalik yaqin bo'lsa, samaradorlik shunchalik yuqori bo'ladi.</i>
Muvofiqlik stavkalari	<i>Ular o'z majburiyatlarini bajaruvchi (deklaratsiyani topshirish, soliq to'lash) soliq to'lovchilar sonini ro'yxatga olingan soliq to'lovchilarning umumiy soni bilan solishtirish yo'li bilan hisoblanadi.</i>
Yig'ish qiymati	<i>Bu ko'rsatkich soliq tizimlarining samaradorligini aniqlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan soliq tushumlarini undirish bo'yicha ma'muriy xarajatlarni o'lchaydi. Yig'ilgan daromad miqdoriga nisbatan pastroq ma'muriy xarajatlar yaxshi ishlashni ko'rsatadi.</i>

⁷ O'rganishlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

⁸ O'rganishlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini baholashning asosiy usullaridan biri samaradorlik ko'rsatkichlari va asosiy ko'rsatkichlardan foydalanish hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar soliq organlari faoliyatining muvaffaqiyatini baholash uchun mezon bo'lib xizmat qiladi. Odatda ishlatiladigan ko'rsatkichlar quyidagilarni o'z ichiga oladi (1-javdal):

Soliq ma'muriyatchiligining diagnostikasini baholash vositasi (TADAT) soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini baholash uchun keng qamrovli, xalqaro miqyosda tan olingan asosdir. Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan TADAT uchta o'lchov bo'yicha 9 ta asosiy faoliyat sohasini baholaydi: soliq to'lovchilarga xizmat ko'rsatish, qonunchilikka rioya qilish va ijro etish, soliq siyosati va tizimlari. Baholangan asosiy sohalar 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Soliq ma'muriyatchiligi diagnostikasini baholash vositasi⁹

Ko'rsatkich nomi	Mohiyati
Daromadlarni jalb qilish	<i>soliq ma'muriyatchiligining soliqlarni samarali va adolatli yig'ish qobiliyati.</i>
Soliq to'lovchini ro'yxatga olish va xizmat ko'rsatish	<i>soliq to'lovchilarni ro'yxatga olish, xizmatlar ko'rsatish va tegishli hujjatlar va aloqa orqali rioya etilishini ta'minlash qobiliyati.</i>
Soliq tekshiruvi va ijrosi	<i>tekshirishlar samaradorligi va soliq qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlash.</i>
Oshkoralik va hisobdorlik	<i>soliq ma'muriyatchiligining qanchalik shaffof faoliyat yuritishi va o'z harakatlari uchun javobgarligi.</i>

TADAT baholashini o'tkazish orqali O'zbekiston soliq ma'muriyatchiligi ilg'or xalqaro tajribalardan foydalangan holda kuchli tomonlarini va islohotga muhtoj sohalarni aniqlashi mumkin.

Soliq ma'muriyatchiligi islohotlari va siyosatining kengroq ta'sirini tushunishda miqdoriy usullardan tashqari, sifat baholash ham muhim ahamiyatga ega. Manfaatdor tomonlar o'rtasida o'tkazilgan so'rovlar soliq to'lovchilar, biznes va soliq xodimlari kabi turli guruhlarining tajribalari haqida qimmatli tushunchalar beradi va ushbu so'rovlar 3-javdalda keltirilgan.

3-jadval

Sifatli baholashlar va manfaatdor tomonlarni so'rovlari¹⁰

Ko'rsatkich nomi	Mohiyati
Soliq to'lovchining qoniqishi	<i>soliq ma'muriyatchiligi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni topshirish, to'lov jarayonlari va mijozlarga xizmat ko'rsatish qulayligidan soliq to'lovchilarning qanchalik qoniqishini baholash.</i>
Adolatni anglash	<i>soliq to'lovchilarning soliq tizimidagi adolat haqidagi tasavvurlarini o'lchash, bu esa muvofiqlik stavkalariga ta'sir qiladi.</i>
Korrupsiyani idrok etish	<i>soliq organlariga ishonch darajasini va tizimda ixtiyoriy rioya qilishga ta'sir qiluvchi korrupsiyani baholash.</i>

⁹ O'rganishlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

¹⁰ O'rganishlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Samaradorlikni baholashning qimmatli usuli xalqaro standartlar bilan qiyosiy tahlil qilishdir. O‘zbekistonning soliq ma’muriyatchiligi faoliyatini jahon standartlari yoki boshqa shunga o‘xshash mamlakatlar bilan solishtirish orqali siyosatchilar mahalliy sharoitga moslashtirilishi mumkin bo‘lgan kamchiliklar va ilg‘or tajribalarni aniqlashlari mumkin. Asosiy xalqaro mezonlarga 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Xalqaro mezonlar bilan qiyosiy tahlil¹¹

Ko‘rsatkich nomi	Mohiyati
Biznes yuritish indeksi (soliqlarni to‘lash komponenti)	<i>Bu indeks mamlakatlarni soliqlarni to‘lashning qulayligi, jumladan, soliq to‘lovlari soni, bajarish uchun sarflangan vaqt va rioya qilish narxiga qarab tartiblaydi.</i>
OECDning soliq ma’muriyatchiligi bo‘yicha ko‘rsatmalari	<i>Ushbu ko‘rsatmalar samaradorlik, shaffoflik va adolatga e‘tibor qaratgan holda soliq ma’muriyatchiligining ilg‘or amaliyotlari bo‘yicha global istiqbolni taqdim etadi.</i>

Yuqoridagilarga asoslanadigan bo‘lsak, soliq ma’muriyatchiligini samarali baholash O‘zbekiston fiskal tizimining samarali, adolatli va mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish maqsadlarini qo‘llab-quvvatlashga qodir bo‘lishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston innovatsion metodologiyalarni qo‘llashda davom etish, ilg‘or xalqaro tajribalardan foydalanish hamda shaffoflik va adolatga e‘tibor qaratish orqali soliq tizimini mustahkamlashi, jamoatchilik ishonchini oshirishi va kengroq iqtisodiy intilishlariga hissa qo‘shishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda soliq ma’muriyatchiligining hozirgi holati va tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda soliq ma’muriyatchiligining hozirgi holati va uning asosiy ko‘rsatkichlari, soliq ma’muriyatchiligining iqtisodiyot va xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy holatiga ta’siri tahlil qilingan hamda soliq ma’muriyatchiligidagi mavjud muammolar va kamchiliklar o‘rganilgan.

Ushbu tadqiqot ishida 2018–2024-yillar davomida O‘zbekiston soliq ma’muriyatchiligining holati, asosiy ko‘rsatkichlari va ular asosida shakllangan tendensiyalarni tahlil qilish maqsad qilib olingan.

5-jadval ma’lumotlari shundan dalolat beradiki, 2018–2019-yillar oralig‘ida soliq tushumlari ko‘rsatkichi 54 202,8 mlrd.so‘mdan 83 323,9 mlrd.so‘mga o‘sgan, bu esa qariyb 29 121,1 mlrd.so‘mlik o‘sishni anglatadi. Bu davrda YAIMga nisbatan ulush ham 11,4% dan 14,0% ga ko‘tarilganini ko‘rish mumkin. 2020-yilda soliq tushumlari 103 566,4 mlrd.so‘mni tashkil etgan bo‘lib, bu ham 2019-yilga nisbatan 20 trln.so‘mdan ziyod o‘sishni ko‘rsatadi. Ammo bu davrda YAIMga nisbatan ulush 15,5% bo‘lgan. 2021-yilda soliq tushumlari 127 970,4 mlrd.so‘mga yetgan bo‘lib, YAIMga nisbatan ulush 15,6% ni tashkil etadi. 2022-yilga kelib soliq tushumlari 148 501,2 mlrd.so‘mni tashkil etib, YAIMga nisbatan ulush 14,9% ga pasayganligi ko‘zga tashlanadi.

¹¹ O‘rganishlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

5-jadval

2018-2024-yillar davomida soliq tushumlari dinamikasi va uning YAIMga nisbati bo'yicha o'zgarishlarni tahlil¹²

Yillar	Soliq tushumi (mlrd.so'm)	YAIMga nisbatan ulushi (%)	Soliq to'lovchilar soni	Soliq tekshiruvlari soni	Respublika bo'yicha deklaratsiya taqdim etish holati	
					Deklaratsiya topshirgan fuqarolar	To'langan soliq summasi (mlrd.so'm)
2018	54202,8	11,4	11 721 725	269 137	489 605	135,2
2019	83323,9	14,0	12 025 088	282 930	595 582	193,9
2020	103566,4	15,5	12 631 061	45 328	491 284	172,8
2021	127970,4	15,6	12 970 519	84 171	537 799	197,1
2022	148501,2	14,9	13 676 795	38 963	565 105	276,4
2023	165918,3	13,8	14 124 706	50 762	500 966	446,8
2024	199449,1	13,7	14 328 365	31 938	552 725	542,2

2023–2024-yillar ko'rsatkichlariga e'tibor qaratsak, 2023-yilda 165 918,3 mlrd.so'm soliq tushumi, 2024-yilga kelib 199 449,1 mlrd.so'mga yetganini ko'rish mumkin. Bunda YAIMga nisbatan ulush mos ravishda 13,8% va 13,7% etib belgilangan. Demak, soliq tushumlari mutlaq ko'rsatkichda ortishi davom etgan, biroq YAIMdagi ulush biroz pasaygan.

6-jadval

Soliq turlari bo'yicha tahlil¹³, mlrd.so'mda

Yillar	QQS	JSHDS	Foyda solig'i	Mahalliy soliqlar	Soliqsiz tushumlar
2018	13 734,8	6 422,7	5 030,2	9 181,8	2 154,0
2019	23 660,7	12 668,9	9 975,8	4 611,3	2 835,2
2020	20 485,6	14 854,5	28 670,0	3 453,6	5 820,3
2021	25 572,2	18 521,0	38 363,3	4 347,5	7 652,6
2022	32 812,1	23 891,2	37 649,9	5 764,8	14 252,1
2023	33 983,5	29 518,4	40 778,9	7 166,6	15 619,0
2024	39 567,1	34 884,7	52 663,5	9 067,0	14 870,5

6-jadvalda asosan QQS, JSHDS, foyda solig'i, mahalliy soliqlar va soliqsiz tushumlar bo'yicha raqamlar keltirilgan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, 2018–2024-yillar oralig'ida, ayniqsa, QQS va foyda solig'i bo'yicha dinamika juda katta o'sish sur'atlarini ko'rsatgan.

2018–2024-yillar oralig'ida O'zbekiston soliq ma'muriyatchiligida sezilarli ravishda o'sish sur'atlari kuzatilgan. Soliq tushumlarining mutlaq ko'rsatkichda ortgani bilan bir qatorda, soliq tekshiruvlari soni kamayib, elektron hisobotlardan foydalanuvchilar soni oshishi, foyda solig'i va QQS tushumlari keskin ortgani tizimda islohotlar izchillik bilan amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. Bu esa

¹² O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi (<https://gov.uz/oz/soliq>) va O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi (<https://stat.uz/>) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi (<https://gov.uz/oz/soliq>) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

iqtisodiyotda kichik biznes ulushi kengaygani, sanoatda hamda xizmat ko'rsatish sohaslarida raqobatlashuv darajasi o'sgani, ayrim soliq imtiyozlarining mavjudligi, shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonlari orqali yashirin iqtisodiyot ham asta-sekin oshkor bo'layotganidan darak beradi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, kichik biznesga oid soliq ma'muriyatchilikdagi tushunmovchiliklar eng katta muammolardan biri sifatida ko'plab chalkashliklar va muammolarga duch kelmoqda. Shu bois, kichik va o'rta biznes uchun institutsional hamda huquqiy muhitni yaxshilash dolzarb masalalardan biri desak xato bo'lmaydi.

Institutsional iqtisodiyot nazariyasi nuqtai nazaridan, kichik va o'rta biznes sektori barqaror iqtisodiy o'sishni harakatga keltiruvchi asosiy drayverlardan biri sanaladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ham tadqiqotlarida byurokratik to'siqlar, o'ta murakkab litsenziyalash tartiblari va soliq yuki yuqoriligi biznes muhitining raqobatbardoshligini pasaytirishini alohida qayd etadi. Shu bois, litsenziyalar va tasdiqlovchi hujjatlar sonini qisqartirish, soliq yukini maqbullashtirish hamda tadbirkorlikni boshlash tartiblarini soddalashtirish orqali milliy «Doing Business» indeksini yaxshilash qabul qilinayotgan islohotlarning uzviy tarkibiy qismi bo'lishi kerak.

Muhim jihat shundaki, moliyaviy barqarorlikni ta'minlagan, ya'ni oxirgi uch yilda umumiy tovar (xizmat) aylanmasi 10 mlrd.so'mdan oshmagan, budjet va kreditorlar oldida qarzdorligi yo'q hamda soliq hisobotlarini o'z vaqtida taqdim etib kelayotgan kichik va o'rta biznes subyektlari uchun ixtiyoriy tugatilish jarayonlarini yengillashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shu bois, xavfni tahlil qilish elektron tizimida huquqbuzarlik sodir etish xavfi past klassifikatsiyasiga ega bo'lgan bunday korxonalarni soliq tekshiruvsiz tugatish tartibini joriy etish davlat–biznes o'rtasidagi ishonch darajasini oshirish bilan bir qatorda, regulyativ imtiyoz va soliq moslashuvchanligi tamoyillariga ham mos keladi. Shu yo'sinda, faoliyatini to'xtatish istagidagi subyektlar uchun ma'muriy xarajatlar kamayadi, soliq organlari esa o'z resurslarini haqiqatan ham yuqori xavf darajasiga ega bo'lgan korxonalarni nazorat qilishga yo'naltirishi mumkin. Natijada institutsional islohotlar chuqurlashib, investitsiya jozibadorligi ortadi va mamlakatda o'rta muddatli istiqbolda inklyuziv iqtisodiy o'sish uchun mustahkam poydevor yaratiladi.

Soliq tushumlari tarkibida yirik va mahalliy soliq turlari mavjud. Ulardan keladigan tushumlar turlicha ko'rinishda shakllanadi, davlat budjeti va mahalliy budjetlar daromadlarida turli hissaga ega bo'ladi. Quyidagi 7-jadvalda respublika bo'yicha jami soliq tushumlarining 2018–2024-yillar dinamikasida taqdim etilgan.

Ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, soliq turlari strukturaviy tahlili mamlakatda iqtisodiy faoliyat tarkibi qanday shakllanayotgani, aholi bandligi va biznes soha tendensiyalari haqida aniq tasavvur beradi. Masalan, QQS bilan bog'liq tushumlar o'rta va yirik bizneslarda savdo aylanmasining rasmiylashganlik darajasi bilan bog'liq bo'lsa, jismoniy shaxslarning daromad solig'i ish haqi rasmiylashuv darajasi bilan bevosita bog'liq. Mahalliy soliqlar esa mahalliy hokimiyatlar uchun muhim manba bo'lib, ularni to'g'ri ma'muriylashtirish hududlarning infratuzilmasini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Soliq turlari bo'yicha tushumlar dinamikasi¹⁴ (mlrd. so'mda)

Soliq turlari nomi	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Respublika bo'yicha jami	54202,8	83323,9	103566,4	127970,4	148501,2	165918,3	199449,1
shu jumladan:							
Mahalliy soliqlar	9181,8	4611,3	3 453,6	4 347,5	5 764,8	7 166,6	9 067,0
YATTlar qat'iy solig'i	999,2	653,8	286,3	396,7	393,3	399,0	506,7
JSHlar yer solig'i	663,2	905,4	1 079,9	1 420,3	1 883,9	2 872,0	3 351,6
JSHlar mol-mulk solig'i	708,3	806,7	733,4	881,2	974,9	1 488,4	2 379,2
Aylanmadan soliq	6811,1	2245,4	1 353,9	1 649,4	2 512,7	2 407,3	2 829,5
Yirik soliq turlari	42867,0	75877,4	94292,5	115970,2	128484,4	143132,7	175511,6
Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)	13734,8	23660,7	20485,6	25572,2	32812,1	33983,5	39567,1
Aksiz solig'i, jami	6547,3	11603,0	10838,8	12778,9	13077,2	15132,9	17764,5
JSHlar daromad solig'i jami	6422,7	12668,9	14854,5	18521,0	23891,2	29518,4	34884,7
YUShlar foyda solig'i (+ qo'shimcha foyda)	5030,2	9975,8	28670,0	38363,3	37649,9	40778,9	52663,5
Yer qa'ri foyd. uchun soliq	8264,8	14439,8	15782,1	14943,7	13341,0	14828,9	19832,5
Qurilish materallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	0,0	253,1	635,1	868,2	546,3	471,1	337,1
YUShlar mol-mulk solig'i	1897,8	1553,7	1 240,8	1 576,1	3 040,5	3 609,3	4 425,5
YUShlar yer solig'i	841,0	1407,9	1 306,8	2 662,5	3 422,0	4 018,1	4 864,0
Suv resursi foyd. uchun soliq	128,4	314,5	478,8	684,4	704,1	791,4	1 172,7

Izoh: JSHlar – jismoniy shaxslar, YUShlar – yuridik shaxslar, YATT – yakka tartibdagi tadbirkorlar. Mol-mulk solig'i, yer solig'i kabi turlar jismoniy shaxslar uchun ham, yuridik shaxslar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini baholashda yangi ochilayotgan hamda tugatilayotgan korxonalar soni muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Chunki qonunlar soddalashgan, soliq yuki mo'tadil bo'lgan sharoitda biznesni tashkiliy jihatdan boshlash osonlashadi, ammo soliq stavkalari ortib ketganda yoki tekshiruvlar bisyor bo'lganda, korxonalar o'z faoliyatini yopishga majbur bo'lishi mumkin. Quyidagi 8-jadvalda 2018–2024-yillar mobaynida yillar kesimida tashkil etilgan va tugatilgan korxonalar soni keltirilgan.

2018–2024-yillar davomida yangi ochilgan va tugatilgan korxonalarining qiyosiy tahlili¹⁵

Yil	Yangi ochilgan korxonalar soni	Tugatilgan korxonalar soni
2018	76 147	26 551
2019	107 852	23 979
2020	107 933	20 084
2021	112 878	140 911
2022	96 986	31 245
2023	89 865	35 755
2024	80 507	40 163

2018-yilda 76 147 ta yangi korxonalar ochilgan bo'lsa, yil sayin bu ko'rsatkich oshgan: 2019-yilda 107 852 ta, 2020-yilda 107 933 ta. Bu mamlakatda tadbirkorlik

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi (<https://gov.uz/oz/soliq>) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi (<https://gov.uz/oz/soliq>) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

muhiti yaxshilanib, liberalizatsiya jarayonlari amalga oshirilayotganidan dalolat beradi. 2021-yil yakuni bo'yicha respublika davlat ro'yxatida 112 878 ta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etildi, biroq shu davrda reestrda chiqarilgan subyektlar soni undan ham yuqori — 140 911 tani tashkil etdi. 2022-yildan boshlab yangi korxonalar soni kamayib borgan: 2022-yilda 96 986 ta, 2023-yilda 89 865 ta, 2024-yilda 80 507 taga tushgan. Tugatilgan korxonalar soni 2018-yilda 26551 tani, 2020-yilda 20084 tani tashkil etib, biroz kamaygan bo'lsa, 2021-yilda 140911 tagacha keskin ortadi. Bu "bir martalik" yopilishlar oqimi bo'lib, bunga soliq tekshiruvlarida aniqlangan qonunbuzarliklar, korxonalar o'rtasida raqobat kuchayishi, shuningdek chet el sarmoyalarining aniq tarmoqlarga yo'nalishi sabab bo'lgan. 2022–2024-yillarga kelib bu ko'rsatkich 31245 ta, 35755 ta, 40163 ta tarzida oshgan, bu ko'rsatkich ham iqtisodiyotda aniq bir barqarorlashuv jarayoni kuzatilayotganidan dalolat beradi. Shunday qilib, yangi ochilayotgan va tugatilayotgan korxonalar soni iqtisodda soliq siyosatining naqadar qulay yoki og'ir ekanini, tekshiruvlar samaradorligini hamda biznes muhitidagi raqobat sharoitlarini o'zida ifodalashi mumkin.

